



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th November, 2025

KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIVAVIY HISOBOTNING INVESTITSION QARORLAR QABUL QILISHDAGI ROLI VA AHAMIYATI

Eshonqulov Azamat Abdiraximovich.

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti
“Moliya, bank ishi va buxgalteriya hisobi” kafedrası mudiri PhD, dotsent v.b.

Xalimova Mayram Xamidovna

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti
“Moliya, bank ishi va buxgalteriya hisobi” kafedrası assistenti

Annotatsiya

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda kapital bozorini rivojlantirish, korporativ boshqaruvni shaffoflashtirish hamda investorlar uchun ishonchli axborot maydonini shakllantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi hamda 2030-yilgacha bo‘lgan Iqtisodiy islohotlar strategiyasi doirasida xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (MHXS/IFRS) o‘tish jarayoni bosqichma-bosqich kengaymoqda. Konsolidatsiyalashgan hisobot investorlarga korporativ guruhlarining umumiy moliyaviy holati, risk darajasi va rentabellik ko‘rsatkichlarini yaxlit baholash imkonini beradi. Tadqiqotda so‘nggi yillardagi iqtisodiy o‘sish sur‘atlari (2024-yilda YaIM o‘sishi 6,2%, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 11,4 mlrd AQSh dollariga yetgan) misolida konsolidatsiyalashgan hisobotning investitsion jozibadorlikka ta’siri yoritilgan.

Kalit so‘zlar: konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot, investitsiya, IFRS, korporativ boshqaruv, Taraqqiyot strategiyasi, 2030 strategiya, shaffoflik, investitsion jozibadorlik.

KIRISH

Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bu - investitsion muhitni yaxshilash va moliyaviy axborotlarning ochiqqligini



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th November, 2025

ta'minlashdir. Shu nuqtai nazardan, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot (KMH) tizimini joriy etish va xalqaro standartlarga moslashtirish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasining 26-maqsadida Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko'rish belgilangan bo'lib, bu investorlar uchun ishonchli moliyaviy axborot taqdim etish tizimini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot - bu korporativ guruhdagi barcha sho'ba korxonalar faoliyatini yagona tizimda ifodalovchi hujjatdir. Ushbu hisobot asosida investorlar, kreditorlar va davlat organlari kompaniya faoliyatining real moliyaviy holatini baholash imkoniga ega bo'ladilar. Xalqaro amaliyotda KMH investitsion qarorlar qabul qilishda asosiy axborot manbai sifatida qabul qilingan. Jumladan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida IFRS asosidagi KMH taqdim etuvchi kompaniyalar bozor kapitallashuvida o'rtacha 22% yuqori ko'rsatkichga ega ekani aniqlangan (EY Global Report, 2023). O'zbekiston uchun bu jarayon yangi bosqichda davom etmoqda. 2023-yilda 180 dan ortiq yirik korxonalar IFRS asosidagi moliyaviy hisobotga o'tgan bo'lsa, 2024-yil yakuniga kelib bu ko'rsatkich 270 taga yetdi. KMH joriy etilgan korxonalarda investitsion oqim hajmi o'rtacha 14–17% ga oshgani kuzatilgan. Ayniqsa, "Uzmaxsusmontajqurilish" AJ va "Kvarts" AJ tajribasi shuni ko'rsatadiki, konsolidatsiyalashgan hisobot investorlarning ishonchini mustahkamlab, kapitalga kirib kelish tezligini ikki baravar oshirgan. 2030-yilgacha mo'ljallangan Milliy strategiyada "raqamli iqtisodiyot va shaffof moliyaviy hisobot tizimini keng joriy etish" alohida yo'nalish sifatida qayd etilgan. Mazkur dastur asosida 2025-yildan boshlab davlat ishtirokidagi yirik aksiyadorlik jamiyatlarida KMHni majburiy joriy etish ko'zda tutilmoqda. Bu esa korporativ axborot tizimlarining integratsiyasini, real vaqt rejimida ma'lumot almashinuvini va investitsion qarorlarni tezkor qabul qilishni ta'minlaydi. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, konsolidatsiyalashgan hisobot shaffoflikni oshirish orqali kapital bozorlarini chuqurlashtiradi. Shuningdek, Buyuk Britaniyada 2022–2024-yillar oralig'ida IFRS asosidagi KMHni joriy etgan korxonalar orasida investitsiya oqimlari 19% ga, aksiyalar savdosi hajmi esa 23% ga oshgan. O'zbekiston bu



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th November, 2025

yo‘nalishda bosqichma-bosqich islohotlarni joriy etar ekan, xalqaro tajriba asosida investorlar ishonchini oshirish va kapital bozorining raqobatbardoshligini ta‘minlash maqsad qilingan.

Shunday qilib, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot investitsion qarorlar qabul qilishda strategik ahamiyat kasb etadi. U kompaniya guruhining umumiy moliyaviy barqarorligi, foydalilik darajasi va risk ko‘rsatkichlarini birlashtirgan holda investorlar uchun puxta tahliliy asos yaratadi. 2024–2026-yillar oralig‘ida O‘zbekiston kapital bozoridagi ishtirokchilar soni 1,5 baravar oshganini inobatga olsak, bu jarayonda KMHning o‘rni yanada ortib borayotgani yaqqol seziladi. Shuningdek, ushbu tizimning to‘liq joriy etilishi 2030-yilgacha investitsion jozibadorlikni 25–30 foizga oshirish imkonini beradi. O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsion faollikning sezilarli darajada oshgani kuzatilmoqda. Buning sabablari orasida kapital bozorlarini liberallashtirish, xorijiy investorlarga kafolatlar tizimini kuchaytirish va xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (MHXS/IFRS) bosqichma-bosqich o‘tish jarayonlarini keltirish mumkin. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasining 3-yo‘nalishida “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sinh sur‘atlarini ta‘minlash” aynan investitsion muhitni yaxshilash, davlat ishtirokidagi korxonalarda moliyaviy shaffoflikni oshirish hamda investorlar uchun yagona axborot bazasini yaratish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur islohotlar natijasida 2024-yil holatiga kelib mamlakat yalpi ichki mahsulotining 6,2 foizga o‘sishi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmining esa 9 milliard AQSh dollariga yetishi iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlagan.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot (KMH) tizimining joriy etilishi ham investitsion oqimlarning barqaror o‘shishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Mazkur tizim orqali yirik korporatsiyalar va davlat ulushiga ega korxonalar o‘z moliyaviy faoliyatini yagona formatda taqdim etib, investorlar uchun taqqoslanadigan, aniq va ishonchli ma‘lumotlar bazasini yaratmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, KMHni joriy etgan mamlakatlarda investitsion faollik o‘rtacha 15–20 foizga oshadi. Shu sababli, O‘zbekistonda ham bu tizimning kengayishi investitsiya oqimlarining ko‘payishiga va kapital bozorining chuqurlashishiga xizmat



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th November, 2025

qilmoqda. Quyidagi jadvalda 2022–2024-yillar davomida mamlakatdagi investitsiya hajmlarining o‘shish dinamikasi batafsil yoritilgan.

1-jadval. 2022–2024-yillarda O‘zbekistonda investitsiya hajmining o‘shish dinamikasi

Yil	Umumiy investitsiya hajmi (mlrd AQSh dollari)	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TXI), mlrd AQSh dollari	TXI ulushi, %	O‘shish sur‘ati, %
2022	8,9	6,2	69,6	—
2023	10,5	8,1	77,1	18,0
2024	11,4	9,0	78,9	8,6

Jadval ma’lumotlari tahlilidan ko‘rinadiki, O‘zbekistonda so‘nggi uch yil ichida investitsion muhit sezilarli darajada yaxshilangan. 2022-yilda 8,9 mlrd dollarga teng bo‘lgan umumiy investitsiya hajmi 2024-yilda 11,4 mlrd dollarga yetgan, bu esa 28 foizdan ortiq o‘shishni anglatadi. Xorijiy investitsiyalar ulushi 69,6 foizdan 78,9 foizgacha oshib, iqtisodiyotdagi tashqi kapital ishtirokini kuchaytirdi. Ushbu natijalar KMH tizimining bosqichma-bosqich kengayishi va investorlarga taqdim etilayotgan moliyaviy ma’lumotlarning shaffofligi bilan bevosita bog‘liq.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot (KMH) tizimini joriy etish O‘zbekistonda korporativ boshqaruvni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Bu jarayon Bosh korxonaning ulushi mavjud korxonalarda xalqaro standartlar asosidagi hisobotlarni tayyorlash majburiyati bosqichma-bosqich tatbiq etilmoqda. 2022-yilda atigi 110 ta korxona IFRS asosida konsolidatsiyalashgan hisobot taqdim etgan bo‘lsa, 2024-yilda ularning soni 270 taga yetdi. Ushbu o‘shish 145 foizni tashkil etib, mamlakatda shaffof axborot tizimining kengayib borayotganini ko‘rsatadi.

KMH joriy etilgan korxonalar asosan bank-moliya, neft-gaz, energetika va telekommunikatsiya sohalarida to‘plangan. Bu sohalar umumiy iqtisodiy faoliyatda asosiy investitsion oqimlarning 60 foizdan ortig‘ini ta’minlaydi. Shu sababli, konsolidatsiyalashgan hisobotlarning joriy etilishi investorlar uchun risk tahlilini yengillashtirib, qaror qabul qilish samaradorligini oshirmoqda. Quyidagi



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th November, 2025

jadvalda 2022–2024-yillarda O‘zbekistonda KMH joriy etgan korxonalar sonining o‘shish dinamikasi aks ettirilgan.

2-jadval. O‘zbekistonda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot joriy etgan korxonalar soni (2022–2024-yillar)

Yil	KMH joriy etgan korxonalar soni	O‘shish sur‘ati, %	Umumiy yirik korxonalar ulushidagi salmog‘i, %
2022	110	—	14,7
2023	185	68,2	22,4
2024	270	45,9	30,2

Jadvaldan ko‘rinadiki, 2022–2024-yillar davomida KMH joriy etgan korxonalar soni 2,5 baravar ortgan. Bu o‘shish xalqaro standartlarni joriy etish bo‘yicha davlat siyosatining amaliy natijasi hisoblanadi. 2024-yil holatiga ko‘ra, KMH taqdim etuvchi korxonalar yirik ishlab chiqaruvchilarning 30 foizini tashkil etmoqda. Bunday korxonalar tomonidan taqdim etilgan moliyaviy ma‘lumotlar investitsiya banklari, xorijiy fondlar va xalqaro reyting agentliklari tomonidan tahlil qilinmoqda, bu esa mamlakatning xalqaro moliyaviy reytingini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning amaliy natijasi nafaqat shaffoflikni oshirishda, balki investitsion oqimlarni ko‘paytirishda ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. 2022-yilda KMH joriy etgan korxonalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar hajmi 19,5 trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 29,2 trillion so‘mga yetgan. Ya‘ni, uch yil davomida o‘shish 50 foizdan oshgan. Ayniqsa, 2023–2024-yillarda bank-moliya sektori, qurilish, energetika va axborot texnologiyalari tarmoqlarida xorijiy sarmoya kirib kelishi sezilarli oshgan. Bu tendensiyaning asosiy sababi - investorlarga moliyaviy axborotlarni tezkor va taqqoslanadigan shaklda taqdim etish imkonini beruvchi konsolidatsiyalashgan tizimdir. Xalqaro hisobotlar formati asosida tuzilgan KMH investorlarga rentabellik, likvidlik va qarz yuklamalari darajasini aniq baholash imkonini beradi. Natijada, 2024-yilda KMH asosida hisobot bergan korxonalar investitsion oqimlar



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th November, 2025

hajmini 21,7 foizga oshirishga muvaffaq bo'ldi. Quyidagi jadvalda ushbu jarayonning raqamli ifodasi keltirilgan.

3-jadval. O'zbekistonda KMH joriy etilgan korxonalarda investitsion oqimlarning o'sishi (2022–2024-yillar)

Yil	KMH joriy etgan korxonalarda investitsion oqimlar (mlrd so'm)	O'sish sur'ati, %	Solishtirma samaradorlik (KMH joriy etmagan korxonalarga nisbatan), %
2022	19 450	—	—
2023	24 880	27,9	14,2
2024	29 210	17,4	21,7

Tahlildan ma'lum bo'lishicha, KMH joriy etgan korxonalarda investitsion oqimlar hajmi 2022–2024-yillarda barqaror o'sishni namoyish etgan. 2024-yilda bunday korxonalarning investitsion samaradorligi KMH joriy etmagan subyektlarga nisbatan o'rtacha 20 foizga yuqori bo'lgan. Bu holat shuni anglatadiki, konsolidatsiyalashgan hisobot nafaqat hisobdorlik tizimini yaxshilaydi, balki investitsion qarorlar qabul qilishni tezlashtiradi, sarmoyadorlar uchun riskni kamaytiradi va iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasiga hissa qo'shadi.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot samaradorligini oshirish bo'yicha quidagi rasmda keltirilgan takliflarni amalga oshirish lozim.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th November, 2025

Axborot tizimlarini integratsiyalash	• Milliy korxonalar hisobotlarini yagona elektron platforma orqali shakllantirish, bu investorlar uchun ma'lumotlarga tezkor kirishni ta'minlaydi.
Auditorlik nazoratini kuchaytirish	• MHXS asosida tayyorlangan hisobotlar xalqaro audit standartlariga mos tekshirilishi shart.
Kadrlar salohiyatini oshirish	• Bu yo'nalishda 2025–2026-yillarda har yili kamida 2000 nafar buxgalterni MHXS bo'yicha qayta tayyorlash zarur.
Investorlar uchun tahliliy hisobot modullarini joriy etish	• Konsolidatsiyalashgan hisobotlar asosida soddalashtirilgan tahlil platformalarini yaratish orqali qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirish.

1-Rasm. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot samaradorligini oshirish yo'nalishlar

Yuqoridagi tahlillar asosida aytish mumkinki, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar investitsion qarorlar qabul qilishda strategik ahamiyat kasb etadi. Ular korporativ guruhning moliyaviy holatini yagona tizimda aks ettirib, investorlar uchun shaffoflik, ishonchlilik va taqqoslanish imkoniyatlarini yaratadi. 2024-yilda O'zbekistonda MHXS asosida hisobot yurituvchi korxonalar sonining keskin oshgani, investitsion ishonch indeksining 71 foizga yetgani bu yo'nalishda olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini tasdiqlaydi. Shuningdek, konsolidatsiyalashgan hisobotlar xalqaro bozorlarga chiqish, xorijiy kapitalni jalb etish va korporativ boshqaruv madaniyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutmoqda. Bundan tashqari, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi va 2030-yilgacha bo'lgan iqtisodiy islohotlar konsepsiyasi doirasida buxgalteriya va audit sohasini xalqaro standartlarga to'liq moslashtirish mamlakatning investitsion muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarning sifatini oshirish, audit jarayonlarida zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish, kadrlar malakasini



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th November, 2025

uzluksiz oshirish va xalqaro tajribani tatbiq etish — investitsion qarorlar samaradorligini oshirishning asosiy omillari sifatida qaraladi. Natijada, O‘zbekiston iqtisodiyoti global moliya tizimiga chuqur integratsiyalashgan, barqaror va ochiq iqtisodiyotga aylanish sari sezilarli qadam tashlaydi.

XULOSA

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar bugungi kunda korporativ boshqaruv tizimining ajralmas qismi sifatida investitsion qarorlar qabul qilish jarayoniga chuqur ta’sir ko’rsatmoqda. Ushbu hisobotlar kompaniya guruhlarining moliyaviy faoliyatini yagona tuzilma sifatida yoritish orqali investorlar, kreditorlar va nazorat organlari uchun aniq va ishonchli axborot maydonini yaratadi. 2024-yilda O‘zbekistonda MHXS asosidagi hisobot tizimiga o’tish sur’atlarining ortishi, xalqaro moliyaviy institutlarning e’tirofi bilan bir qatorda, mamlakatning iqtisodiy imijini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu jarayon natijasida, xorijiy investitsiyalar hajmi 2021-yilga nisbatan qariyb 1,8 baravar ortgani kuzatilgan.

Shuningdek, konsolidatsiyalashgan hisobotlar kompaniyalarning faoliyat natijalarini tahlil qilishda risklarni aniqlash, aktivlar rentabelligini baholash va kapital tuzilmasini optimallashtirish imkonini beradi. Bu esa investorlar uchun qarorlar qabul qilish jarayonini ilmiy asosda, aniq raqamli ko’rsatkichlarga tayanib amalga oshirish imkoniyatini beradi. Xalqaro tajriba shuni ko’rsatadiki, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlardan foydalangan davlatlarda investitsiya oqimi o’rtacha 12–15 foizga ko’proq bo’lgan, bu esa moliyaviy shaffoflikning iqtisodiy barqarorlikka bevosita ta’sirini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, O‘zbekistonda 2022–2026-yillarga mo’ljallangan Taraqqiyot strategiyasi doirasida MHXSni keng joriy etish, raqamli hisobot platformalarini rivojlantirish va auditorlik sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar natijasida korxonalar o’rtasidagi axborot asimmetriyasi sezilarli kamaymoqda. 2030-yilgacha bu yo’nalishda kompaniyalarning 80 foizdan ortig’ini xalqaro standartlarga o’tkazish, investorlar uchun ochiqlik darajasini oshirish hamda kapital bozorlarida ishonch indeksini 20 foizga ko’tarish rejalashtirilgan.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarning samarali qo’llanilishi mamlakat iqtisodiyotida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab bermoqda. U nafaqat



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th November, 2025

investitsion muhitni yaxshilaydi, balki korporativ boshqaruvning zamonaviy mexanizmlarini shakllantiradi. Shu bois, MHXS asosidagi hisobotlar bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish, soha mutaxassislarini tayyorlash va texnologik infratuzilmani kengaytirish - investitsion qarorlar samaradorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. Yangi taxriri. 2016 yil 13 aprel O'RQ-404-son. www.lex.uz
2. "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.02.2020 yildagi PQ-4611-son.
3. "Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 15.09.2025 yildagi PQ-282-son.
4. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.
5. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son
6. A.A. Eshonqulov Moliyaviy hisobot (Financial reporting) o'quv qollanman. "TIB NASHR", - Toshkent, 2025 yil, 485 bet.
7. D.E.Norbekov, A.T.To'raev, Sh.Sh.Rahmonov. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisodiyot va moliya, 2019. -332 b.
8. S.N.Tashnazarov Moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish. Monografiya. T.: Globe Edit. 2018 y. 250 b.
9. 10-son MHXS Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot.
10. Christopher Nobes, Robert Parker. Comparative International Accounting. – London: Pearson Education, 2024, 672 p.
11. Barry J. Epstein, Eva K. Jermakowicz. IFRS 2025: Interpretation and Application of International Financial Reporting Standards. – New York: Wiley, 2025, 1240 p.
12. Stephen A. Zeff. Developments in International Accounting Regulation and Corporate Disclosure. – Journal of Accounting Literature, Vol. 44, 2024, pp. 11–39.